

MDH DAVLATLARI RAHBARLARINING NORASMIY UCHRASHUVIDA KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21-22-dekabr kunlari amaliy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasida bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari 22-dekabr kuni Sankt-Peterburgdagi “Ermitaj” davlat muzeyida MDH davlatlari rahbarlarining norasmiy uchrashuvida ishtirok etdi.

Tadbirda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar

Berdimuhamedov va Armaniston Bosh vaziri Nikol Pashinyan ham qatnashdilar.

Uchrashuvda joriy yildagi birgalikdagi ishlarning asosiy yakunlari sarhisob qilindi va kelgusi yil uchun ustuvor vazifalar belgilab olindi. Shuningdek, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

O‘zaro tovar ayirboshlashni oshirish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish, transport sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, o‘zaro investitsiyalar o‘shirishni rag‘batlantirish va

kooperatsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, energetika va raqamlashtirishda sheriklikni mustahkamlash, fan, ta’lim, madaniyat va san’at sohalarida qo‘shma loyihalarni kengaytirish, shuningdek, hududlar o‘rtasida uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish muhimligi ta’kidlandi.

Hamdo‘stlik mamlakatlari o‘rtasida madaniy va gumanitar almashinuvlarni davom ettirish, xususan, yoshlarning ijodiy, innovatsion va intellektual salohiyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash zarurligi qayd etildi.



Sankt-Peterburgdagi norasmiy uchrashuvning madaniy dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlar rahbarlari bilan birgalikda “Ermitaj” davlat muzeyiga tashrif buyurdi.

Yetakchilar noyob san’at asarlari va madaniyat yodgorliklari to‘plangan ushbu dunyodagi eng yirik muzeylaridan birining ekspozitsiyasi bilan tanishdilar. Tashrif chog‘ida Rossiya va Yevropa tarixi hamda

badiiy merosining asosiy bosqichlarini aks ettirgan Bosh muzey majmuasi zallari bilan tanishildi.

Delegatsiyalar rahbarlari Aleksandr zalida bo‘lib, badiiy kumush ekspozitsiyasini ko‘zdan kechirdilar, shuningdek, tantanali marosimlar va rasmiy tadbirlarni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan Piketlar zali va Gerblar zaliga tashrif buyurdilar.

Qimmatbaho metallardan tayyorlangan betakror buyumlar saqlanuvchi Oltin xazina, afsonaviy “Tovus” mexanik soati joylashgan

Kichik Ermitajning Pavilyonlar zali mehmonlarda alohida qiziqish uyg‘otdi.

Tashrif davomida madaniy muloqotni mustahkamlash, tarixiy merosni asrab-avaylash va Hamdo‘stlik davlatlari o‘rtasida gumanitar hamkorlikni rivojlantirish muhimligi ta’kidlandi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

“YASHIL” ENERGETIKANI RIVOJLANTIRISHDA YAPON KOMPANIYALARI BILAN HAMKORLIK KO‘LAMI KENGAYMOQDA



Davlatimiz rahbarining Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichining taklifiga binoan 18-20-dekabr kunlari ushbu davlatga rasmiy tashrifi ikki mamlakat aloqalarini yangi bosqichga ko‘tarish yo‘lida muhim siyosiy voqealik bo‘ldi.

Zero, tashrif doirasidagi muloqotlarda Prezidentimiz tomonidan Yaponiya bilan “yashil” energetika va sanoatda uglerod chiqarishni kamaytirish, axborot texnologiyalari, o‘ta muhim minerallar, mashinasozlik sohasidagi hamkorlik, sog‘liqni saqlash va turizm

infratuzilmasini modernizatsiya qilish kabi strategik sheriklikning asosiy yo‘nalishlarini rivojlantirish zarurligi qayd etildi.

► Davomi 2-betda



INFLYATSIYA —

GLOBAL SINOV VA MILLIY BARQARORLIK O‘LCHOVI

4

Yil sarhisobi

BU YIL 10 MILLIARD KUB METRGA YAQIN SUV TEJALDI

Mintaqamizda suv taqchilligi yildan yilga oshib borayotgan ayni pallada aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining obihayotga ehtiyoji ham ortib bormoqda. Bunday vaziyatda suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish bugunning eng dolzarb vazifalaridan.

Yil boshida suv omborlarida zaxira yetarli darajada hozirlangani, kanallarni betonlashtirish va suv tejovchi texnologiyalar o‘rnatish qamrovini kengaytirish, raqamlashtirish va boshqa islohotlar evaziga sug‘orish mavsumi-da muayyan natijalarga erishildi.

Bugungi holatga ko‘ra, transchegaraviy suv omborlari bilan qo‘shib hisoblaganda mamlakatimiz suv zaxirasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 6,5 milliard kub metr kamaygan. Ichki suv omborlarimizda esa 3 milliard kub metr suv taqchilligi mavjud.

► Davomi 3-betda

TOSHKENTNING POYTXT MAQOMIGA MOS TARAQQIYOT YO‘LI

Toshkent nafaqat Markaziy Osiyoning yirik megapolisi, balki ming yillik tarix, boy ma’naviyat va zamonaviy taraqqiyot uyg‘unlashgan betakror shahar hamdir. So‘nggi yillarda azim poytaxtimiz butunlay o‘zgarib, yangicha qiyofa kasb etdi. Ko‘plab turar joy massivlari, yangi binolar qurildi. Bunyodkorlik ishlari, barpo etilgan savdo-servis va ko‘ngilochar obyektlar shahar iqtisodiyotini yanada rivojlantirdi. Tunu kun ishlaydigan savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari soni 3000 dan oshdi.

Keyingi o‘n yilga yetar-yetmas qisqa vaqt oralig‘ida Toshkent shahri iqtisodiyotiga 20 milliard dollardan ortiq to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya kiritilib, 5000 ga yaqin yirik loyiha ishga tushirildi. Jon boshiga xorijiy investitsiya 2017-yildagi 71 dollardan 2200 dollarga oshdi.

Poytaxtda jamoat transportini rivojlantirish bo‘yicha ham salmoqli ishlar qilindi. Xususan, Toshkentga mingta zamonaviy elektrobust va

avtobus olib kelinib, 168 ta yangi yo‘nalish ochildi, qo‘shimcha 33 kilometr metro liniyasi va 21 ta yangi stansiya qurildi. Bularning barchasi, avvalo, yurtdoshlarimiz uchun qulaylik yaratib, avtobuslarning qatnovdagi intervali qisqarishi va tashiladigan yo‘lovchilar sonining oshishiga turki berdi.

► Davomi 2-betda

Bunyodkorlik

Marg‘ilon deganda ko‘z oldingizga qo‘ligul hunarmandlarning hayot tarzi keladi. Ipak qurti boqish, xomashyoni qayta ishlash, bejirim, nafis, qalampirmunchoq naqshlar bilan bezatilgan sarxil ipak mato ishlab chiqarish yo‘lidagi sa’y-harakatlar asrlar davomida o‘z ko‘rki, jozibasini yo‘qotgani yo‘q, albatta.



MARG‘ILONDA “AQLLI” UYLAR QAD ROSTLAMOQDA

“Yangi O‘zbekiston” massivi foydalanishga topshirilish arafasida

Bu masalaning bir jihat. Boshqa tomonda esa, hunarmandlar yillar davomida uy-joy masalasida qiynalgani ham rost. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, shaharda 1 kvadrat kilometr maydonda 1500 kishi yashagan. Bu belgilangan me’yordan ancha yuqori. 1992-yildan 2016-yilga qadar shahar hududida bor-yo‘g‘i, 11 ta ko‘pqavatli uy qurilgan. Oqibatda bir hovlida, bir tom ostida 3-4 oila yashashga majbur bo‘lgan.

Prezidentimiz o‘tgan yili 11-12-iyul kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi chog‘ida mazkur

masalalar yechimiga alohida e’tibor qaratdi. Ko‘hna Marg‘ilon shahriga tutashgan, Farg‘ona tumani hududidagi kam hosilli, tosh-shag‘aldan iborat maydon “Yangi O‘zbekiston” uy-joy massivi qurilishi uchun ajratildi. O‘tgan qisqa muddatda bunyodkorlik an’analari har jihatdan keng quloch yoydi, tashabbuslar qo‘llab-quvvatlandi.

► Davomi 2-betda



“YASHIL” ENERGETIKANI RIVOJLANTIRISHDA YAPON KOMPANIYALARI BILAN HAMKORLIK KO‘LAMI KENGAYMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Tashrif doirasida davlatimiz rahbarining yetakchi kompaniyalar, moliya institutlari hamda biznes uyushmalari rahbarlari bilan uchrashuv va muzokaralari ularning yangi O‘zbekistonga, mamlakatimizda kechayotgan islohotlarga ishonchini yanada mustahkamladi.

“Markaziy Osiyo + Yaponiya” birinchi sammitida O‘zbekiston Prezidenti ilgari surgan taklif va tashabbuslar mintaqamiz va kunchiqar mamlakat o‘rtasidagi integratsiyani yanada rivojlantirish, barcha sohalarida taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Ta’kidlash joiz, so‘nggi yillarda O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi hamkorlik sifat jihatidan yangi mazmun kasb etdi. Yaponiya kompaniyalari ilgari asosan pudrat loyihalarida ishtirok etgan bo‘lsa, bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotiga faol investitsiya kiritib, qo‘shma korxonalar yaratmoqda, boshqaruv, texnologiyalar



Jo‘rabek MIRZAMAHMUDOV, energetika vaziri

transferi va milliy kadrlarni tayyorlashga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Eng muhimi, sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilgan mazkur o‘zgarishlar natijasida Yaponiya O‘zbekistonning asosiy iqtisodiy va texnologik sheriklaridan biriga aylandi.



“**QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI VA ZAXIRALASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH, IQTISODIYOTDA “UGLEROD IZI”NI KAMAYTIRISHGA DOIR HAMKORLIK KELISHUVLARI ENERGETIKA BARQARORLIGINI TA’MINLASH YO‘NALISHIDAGI ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADI.**

ISHONCHLI TELEKOMMUNIKATSIYA INFRATUZILMASI YARATILADI

Yaponiyaga bu safargi tashrifni tarixiy deb atasak hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, fikrimizga erishilgan kelishuvlar va imzolangan hujjatlar yaqqol misol bo‘la oladi.

Eng muhimi, bu biz kabi soha rahbarlari uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Jumladan, raqamlashtirish sohasini oladigan bo‘lsak, biz uchun eng kerakli bo‘lgani ishonchli telekommunikatsiya infratuzilmasidir.

Uchrashuv va muzokaralarga axborot texnologiyalarini rivojlantirish, jumladan, sun‘iy intellekt va raqamlashtirish dasturlarini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilgani sohada bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirishga turtki beradi.

Yapon texnologiyalari ishonchliligi bilan ajralib turadi. Ya’ni magistrat tarmoqlarimizni aynan yapon texnologiyalari orqali yanada kengaytirishni rejalashtirganimiz. Natijada respublikamizning istalgan hududida bu tarmoqlar orqali ishonchli va tez internetdan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Mamlakatimizda bundan bir yarim yil oldin ushbu yo‘nalishda Yaponiya kapitali ishtirokida bitta kompaniya bo‘lgan bo‘lsa, hozir 26 tani tashkil etmoqda.

Prezidentimizning mazkur tashrifidan keyin ularning soni yanada ko‘payadi. Bu esa, o‘z navbatida, yangi ishchi o‘rinlari yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda faoliyat yuritayotgan yapon kompaniyalariga o‘zbekistonlik yoshlar salohiyatidan kengroq foydalanib, o‘z biznesini rivojlantirishni taklif etaymiz.

Prezidentimiz “Markaziy Osiyo + Yaponiya” birinchi sammitida qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, bugun raqamli transformatsiya iqtisodiy o‘sish va barqarorlikning hal qiluvchi omiliga aylanib borayotgani alohida qayd etildi.

“Yaponiya kompaniyalari raqamli iqtisodiyot segmentlari — sanoatni avtomat-

lashtirish, robototexnika, boshqaruvning intellektual tizimlari, yangi avlod buluti va telekommunikatsiya platformalari sohalarida jahonda yetakchidir. “Markaziy Osiyo — Yaponiya” raqamli xabi — raqamli yechimlar, sun‘iy intellekt, “buyumlar interneti”, kibernetika va innovatsion iqtisodiyot sohalarida ko‘p tomonlama hamkorlik platformasini yaratishni taklif etamiz”, dedi davlatimiz rahbari.

Shuningdek, energetika, transport, AT infratuzilmani rivojlantirish, sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiyalash va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda umumiy qiymati 10 milliard dollardan ziyod yangi loyihalarni sifatli tayyorlash hamda boshlanganlarining natijadorligini oshirishga alohida e’tibor qaratildi.



Sherzod SHERMATOV, raqamli texnologiyalar vaziri

Bir so‘z bilan aytganda, sammitda ilgari surilgan tashabbuslar mamlakatlarimiz va xalqlarimiz farovonligi yo‘lida-gi hamkorlikning salmoqli salohiyatidan unumli foydalanishga xizmat qiladi.



Ravshan FOZILOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

Sanoat va kichik biznesni rivojlantirish, aholi bandligini oshirish bo‘yicha qilingan ishlar ham e’tiborga molik. Ushbu sa’y-harakatlar natijasida kambag‘allik darajasi yil boshidagi 7,3 foizdan 1 foizga, ishsizlik esa 4,5 foizdan 3,5 foizga pasayib, Toshkent shahrida kambag‘allik va ishsizlik tabiiy darajaga tushadi. Eng muhimi, bugun qaysi sohada bo‘lmasin, har bir yutuq va natija, avvalo, inson qadriini ulug‘lash, uning huquq va manfaatlarini ta’minlashga xizmat qilayotir.

Toshkent shahrida so‘nggi yillarda savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishi ko‘p funksiyali tijorat majmualari paydo bo‘lishi bilan tavsiflanmoqda. Shular qatorida Yunusobod tumanidagi “Yunusobod galereyasi” savdo, xizmat ko‘rsatish va biznes markazi aholi ehtiyojlarini ta’minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda shahar iqtisodiy faolligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Ikki yarim gektar maydonni egallagan ushbu yirik majmuada 53 ming kvadrat metrdan ziyod savdo va tijorat maydoni tashkil etilgan. 14 million dollarlik xorijiy investitsiya hisobiga qator xorijiy brendlar o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ygan. Majmuada 100 dan ortiq savdo shoxobchasi ochilib, 500 ga yaqin ish o‘rni yaratilgan.

Ushbu markaz ko‘p funksiyali, iqtisodiy jihatdan samarali va aholi uchun qulay tuzilmadir. Uning faoliyati tumanda tadbirkorlik muhitini yaxshilash,



MARG‘ILONDA “AQLLI” UYLAR QAD ROSTLAMOQDA

“Yangi O‘zbekiston” massivi foydalanishga topshirilish arafasida

Boshlanishi 1-betda

Farg‘ona — Qo‘qon katta avtomobil yo‘lining janubiy sarhadi bugun katta bunyodkorlik maydoniga aylangan. Yer qazish ishlarini bajarayotgan texnikalar, poydevor tiklab, ko‘rkam imoratlar

qurayotgan, obodonlashtirish yumushlari bilan andamon ishchi-xizmatchilar harakati bir zum ham to‘xtagani yo‘q. Oz fursatda ko‘p qavatli uylarning dastlabki namunalarini deyarli tayyor bo‘ladi. Hademay egalarga topshiriladi.

Barcha ish zamonaviy shaharsozlik an‘analarga hamohang bajarilmoqda. Birinchi bosqich doirasida qurib bitkazilayotgan 8 ta 16 hamda 9 ta 12 qavatli uylarda so‘nggi pardozlash, tashqi va ichki bezak ishlari yakuniga yetkazilmoqda. E’tiborlisi, har bir uyning me’moriy qiyofasi betakror bo‘lishi uchun yangi usul va andozalardan samarali foydalanilyapti. Shuningdek, 990 o‘rinli maktab, 330 o‘rinli bog‘cha hamda kunlik 250 qatnov o‘rniga ega poliklinika qurilishi belgilangan me‘yorlar asosida davom ettirilmoqda. Davlat byudjeti mablag‘i hisobidan kommunikatsiya tarmoqlari tortish ishlari sifatli bajarilyapti. Zamonaviy yondashuv asosida ichki yo‘llarda yashil hududlar, piyodalar va velosiped yo‘laklari, nogironligi bor shaxslar uchun alohida harakatlanish hududlari barpo etilmogda.

Elektr ta’minoti barqarorligi uchun yangi tarmoq tortilmoqda. Uylar markazlashgan istitish tizimi orqali isitiladi. Tom qismida esa quyosh panellari o‘rnatilyapti. Uylarning tayanch ustuni dunyo qurilish sanoatida asosiy material hisoblangan monolit yordamida ko‘tarilayotgan bo‘lsa, tashqi bezaklarda yozda salqin, qishda issiq haroratti

xizmatlar sifatini oshirish va shahar iqtisodiy hayotini jonlantirishga yordam bermoqda.

Markazga tashrif doirasida davlatimiz rahbariga shu yerda faoliyat yuritayotgan “Unicon-Soft” AT kompaniyasi faoliyati tanishtirildi. Mamlakatimizda axborot texnologiyalari sohasida yaratilgan qulay sharoit natijasida davlat boshqaruvini raqamlashtirish, aloqa infratuzilmasini yaxshilash, AT ta’limini rivojlantirish kabi ko‘plab yo‘nalishlarda milliy dasturiy mahsulot ishlab chiqaruvchilarning ishtiroki izchil kengayib bormoqda.

Prezidentimizning tegishli farmoniga muvofiq, soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari belgilangan. Ushbu jarayonga Yunusobod tumanida faoliyat yuritayotgan “Unicon-Soft” kompaniyasi ham munosib hissa qo‘shmoqda. 2017-yilda tashkil etilgan korxona shu kunga qadar respublika bo‘ylab 70 dan ortiq dasturiy tizim ishlab chiqqan va joriy etgan.

Hozir “Unicon-Soft” tomonidan raqamlashtirish yo‘nalishida dasturiy va texnik vositalar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, bojxona faoliyatini raqamlashtirish, shuningdek, “Raqamli mahalla” platformasini joriy etish rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbari kompaniyaning ushbu yo‘nalishdagi loyihalari taqdimoti bilan tanishib, milliy AT mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, yoshlarning sun‘iy intellekt texnologiyalari sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish, dastlab idoralarda raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish bo‘yicha tegishli tavsiyalar berdi. Bu, o‘z navbatida, AT sohasida yangi ish o‘rinlari ochilishi, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, inson kapitali salohiyatini oshirish va davlat boshqaruvini zamonaviy, samarali tizimga aylantirishga xizmat qiladi.

Bugun uzoqni ko‘zlab yuritilayotgan pragmatik, xalqchil siyosat tufayli poytaxtimiz kun sayin o‘bod va ko‘rkam qiyofa kasb etmoqda. Buni nafaqat yurtdoshlarimiz, balki chet eldan kelayotgan mehmonlar ham alohida e’tirof etmoqda. Bunday o‘zgarishlar haqida ko‘p gapirish mumkin. Shu bilan birga, hali yechimini kutayotgan ayrim masalalar ham bor.

16-dekabr kuni Toshkent shahrini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan har tomonlama rivojlantirish, shahar muhitini yaxshilash va munosib yashash sharoitlarini yaratish masalalari yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda davlatimiz rahbari bu masalaga alohida to‘xtalib, qator yangi tashabbuslarni ilgari surdi.

“Eng avvalo, shahar aholisini tashvishga solayotgan ekologiya, yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish va sifatli boshqaruv masalasida shahar mas’ullari yondashuvini o‘zgartirishi zarur. 2026-yil Toshkent shahri uchun “Jadal rivojlanish va aholi daromadlari o‘sishi” yili bo‘ladi. Bu g‘oyani ro‘yobga chiqarish bo‘yicha katta dastur amalga oshiriladi”, dedi Prezidentimiz.

Poytaxt tumanlari 3 yo‘nalishda rivojlantirilib, 2026-yilda 9 milliard dollar, ikki yilda 20 milliard dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya kiritilishi minglab ish o‘rinlari ochilishi, mehnat bozorida raqobat kuchayib, maoshlar o‘sishi, yoshlar va malakali kadrlar uchun imkoniyatlar kengayishi, shaharni raqobatbardosh, barqaror va aholi uchun qulay megapolisga aylantirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va uzoq muddatli o‘shishni ta’minlashga xizmat qiladi.

So‘nggi o‘n yilliklarda sanoatlashuv, urbanizatsiya va texnologik taraqqiyot natijasida ekologik muammolar keskin kuchayib, inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Atrof-muhitni asrash — bu faqat tabiatni emas, balki inson hayoti va kelajak avlod salomatligini muhofaza qilish, demak.

Dunyoning yirik shaharlari kabi bugun poytaxtimizda ham ekologiya masalasi dolzarb. Shu sababli 1-iyungacha har bir tumanda 5 kilometrl 3 tadan soylali sayr ko‘chalari foydalanishga topshirilib, har 10 ta mahalla uchun 1 tadan yashil bog‘ barpo etiladi. Bu esa havoni tozalab, kislorod miqdorini oshiradi, chang, shovqin va zararli gazlarni kamaytiradi. Asosiysi, yashil hududlar va sayilgohlar inson hayoti sifatini oshirish, tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga zamin yaratadi.

Yig‘ilishda Toshkent shahri faoliyatining huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilovchi “O‘zbekiston Respublikasi poytaxtining maqomi to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish vaqti kelgani ham qayd etildi. Bu biz, deputatlar zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklaydi. Ushbu hujjatning qabul qilinishi esa Toshkentning poytaxt sifatida barqaror, samarali va uyg‘un rivojlanishini ta’minlash, davlat boshqaruvi va aholi hayoti uchun aniq huquqiy asos yaratilishiga xizmat qiladi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, poytaxt — davlatning siyosiy, ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. Poytaxtni boshqarish, rivojlantirish va muhofaza qilish bo‘yicha o‘ziga xos yondashuvlar bo‘lishi kerak.

Davlatimiz rahbari tashrif doirasida odamlarning turmush darajasini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Bularning barchasi yaqin yillarda ham hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirib, uning beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, xalqimiz farovonligini yuksaltirishga zamin hozirlaydi. Ayniqsa, inson qadriini ulug‘lash, xalqni rozi qilish, hududning beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda yangi bosqichni boshlab beradi.

Ushbu jarayonda biz, xalq vakillari faol ishtirok etib, shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shamiz. Zero, ilgari surilgan tashabbuslarda Toshkentni poytaxt maqomiga mos holda jadal taraqqiy ettirish maqsadi ko‘zlangan.

“Oltin vodi” MCHJ quruvchilari massivda 785 xonadonli 11 ta 12 va 16 qavatli uy bunyod etmoqda. Uylarning yetti lasida 325 o‘rinli mashina saqlash joyi tashkil etiladi. Quruvchi tashkilot bu uylarga xizmat ko‘rsatadigan boshqaruv-servis kompaniyasi faoliyatini to‘liq shakllantirish mas’uliyatini ham zimmasiga olgan. Maqsad sifatli, bu yerda yashovchilarga arzon va muqobil xizmatlarni taklif etishdir.

— Yangi uylarning birinchi qavatida oilaviy tantanalar, bayram tadbirlari o‘tkazish uchun mehmonxona va qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish shoxobchalari qurishga e’tibor qaratilyapti, — deydi “Oltin vodi” MCHJ rahbari Abdug‘affor O‘rinboyev. — Bu, ayniqsa, yuqori qavatda yashayotgan aholi vakillari uchun har jihatdan qulaylik yaratib, vaqt va xarajatni tejash, ortiqcha yugur-yugurlarga barham berish imkoniyatini yaratadi.

Shaharchada “Ipoteka” markazi qurilishi yakuniga yetkazilmoqda. Markaz xaridorlarga uy tanlashda yaqindan ko‘maklashib, oldi-sotdini rasmiylashtirishda barcha davlat xizmatlarini bir joyda, qisqa muddatda ko‘rsatishda qo‘l keladi.

Bu yerdagi 75 gektar maydonda 6000 xonadonli zamonaviy uy-joylar qad rostlaydi. Shuningdek, loyiha qiymati 50 million dollar bo‘lgan savdo kompleksi, biznes markazi, 2 ta umumta’lim va 6 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti, 2 ta ko‘p tarmoqli tibbiy klinika qurilishi ko‘zda tutilgan. Burhoniddin Marg‘inoniy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Maqom teatri, mehmonxona, shoir va san’atkorlar xiyoboni, Otabek va Kumush uylari, savdo va xizmat ko‘rsatish majmualari asta-sekin bo‘y ko‘rsatib bormoqda.

Yangi shahar markazidan o‘rin olishi mo‘ljallanayotgan istirohat bog‘i yon-atrofida ko‘rk, go‘zallik bag‘ishlaydi. Landschaft arxitektura asosida yashil xiyobonlar, bolalar maydonlari, manzarali daraxtlar galereyalari barpo etilmogda.

Qisqasi, yaqin vaqtda viloyat ko‘rkiga ko‘rk, salobatiga salobat qo‘shuvchi ko‘hna Marg‘ilondagi “Yangi O‘zbekiston” massivi xonadon sohiblari, baxtli oilalarga quchoq ochadi. Shodon davralarda shukronalik so‘zlari, mumtoz va qadrdon kuy-qo‘shiqlar yangraydi. Bunday huzurbaxsh tuyg‘ularni his etishning o‘zi baxt, saodat.

Rasuljon KAMOLOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Yil sarhisobi

BU YIL 10 MILLIARD KUB METRGA YAQIN SUV TEJALDI



Shavkat HAMROYEV,
suv xo‘jaligi vaziri

Boshlanishi 1-betda

Ushbu murakkab vaziyatni inobatga olgan holda so‘nggi yillarda suv xo‘jaligi tizimini tubdan isloh qilish, suv zaxiralari-dan tejamlilik bilan foydalanishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. Xususan, sohani modernizatsiya qilish uchun oxirgi 5 yilda budjetdan ajratilgan 60 trillion so‘m hamda 622 million dollarlik xorijiy investitsiya irrigatsiya tizimiga yo‘naltirildi.

Prezidentimiz mamlakatimizda Suvni tejash bo‘yicha butunjahon forumini o‘tkazish, 2026-2036-yillarni “Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy harakatlar o‘n yilligi” deb e‘lon qilish tashabbuslarini ilgari surdi.

Ushbu tashabbuslar nafaqat mamlakatimiz aholisi, balki butun mintaqa xalqlari farovonligini ta‘minlashga xizmat qiladigan chora-tadbirlarni belgilab bermoqda. Bu, o‘z navbatida, Prezidentimizning soha vakillariga yaratib bergan imkoniyati, qo‘shnilarining davlatimiz rahbariga hurmati va do‘stona munosabatlarining samarasi, desak ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 15-avgustdagi tegishli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025-2028-yillarga mo‘ljallangan dasturi tasdiqlandi. Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan chora-tadbirlar, maqsadli ko‘rsatkichlar hamda parametrlarga erishishga qaratilgan.

2025-yilda irrigatsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlariga 1 trillion 356 milliard so‘m ajratildi. Shuningdek, melioratsiya obyektlarida 95,3 milliard so‘m evaziga 295,5 kilometrlik kollektor-drenaj tarmoqlari rekonstruksiya qilindi. Vazirlik tizimidagi nasos stansiyalarida o‘rnatilgan 157 ta nasos hamda 166 ta elektr dvigatel yangisiga almashtirildi.

Shu bois, oxirgi to‘rt yilda 13 ming 254 ta suv olish nuqtasida “aqli suv”, 10 ming 983 ta meliorativ kuzatuv qudug‘ida sizot suv ko‘rsatkichi va yerning minerallashganlik darajasini nazorat qiluvchi “DIVER” qurilmasi, 1749 ta nasos stansiyasida suv sarfini monitoring qilish qurilmasi o‘rnatildi. Yirik 100 ta suv xo‘jaligi obyektlarining boshqaruvi avtomatlashtirildi.

Suv xo‘jaligi vazirligi huzurida “Vaziyatlar markazi” tashkil etildi. Sohadagi 10 ta axborot tizimi takomillashtirilib, ma‘lumotlarni yig‘ish, umumlashtirish va tahlil qilish imkonini beruvchi “Raqamli suv xo‘jaligi” yagona platformasi ishga tushirildi.

Shuningdek, 2,6 million gektar maydon suv tejovchi texnologiyalar bilan

boshqarish va qo‘shimcha agrotexnika tadbirlarini o‘tkazish orqali 3,4 milliard, suv tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish hisobiga 2,9 milliard, irrigatsiya tarmoqlarida ta‘mirlash-tiklash va rekonstruksiya tadbirlari hisobiga 3 milliard kub metrga yaqin, suv xo‘jaligida axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni joriy qilish hisobiga 0,7 milliard kub metr suv resurslari iqtisod qilinishiga erishildi.

Shu bilan birga, “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida suv ta‘minoti og‘ir mahallalardagi aholi tomorqalarini suv bilan ta‘minlash loyihalari uchun byudjetdan 1,2 trillion so‘m yo‘naltirildi.

“

SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI HUZURIDA “VAZIYATLAR MARKAZI” TASHKIL ETILDI. SOHADAGI 10 TA AXBOROT TIZIMI TAKOMILLASHTIRILIB, MA‘UMOTLARNI YIG‘ISH, UMUMLASHTIRISH VA TAHLIL QILISH IMKONINI BERUVCHI “RAQAMLI SUV XO‘JALIGI” YAGONA PLATFORMASI ISHGA TUSHIRILDI.

qamrab olindi va sug‘oriladigan maydonlarga nisbatan ulushi 60 foizga yetkazildi. Jumladan, 664 ming gektarda tomchilatib, 121 ming gektarda yomg‘irlatib, 73 ming

Ushbu dasturga ko‘ra, 886 ta loyiha doirasida 1850,9 kilometr kanal, 202,1 kilometr lotok tarmog‘i, 844 ta sug‘orish qudug‘i, 438 ta nasos agregati, 2,9 kilometr



gektarda diskret va 123 ming gektarda boshqa turdagi sug‘orish texnologiyalari joriy qilindi hamda 1,6 million gektar yer lazer uskunasi yordamida tekislandi. Natijada aynan suv tejovchi texnologiyalar hisobiga 2025-yilda 2,3 milliard kub metr suv iqtisod qilindi.

Tahlillarga asosan, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish orqali suv resurslarini 45-50, yoqilg‘i-moylash materiallari va mineral o‘g‘itlarni 25-35 foiz qisqartirish mumkin. Shu bilan birga, hosildorlik 15-20 foizgacha oshadi.

kollektor tarmog‘i, 2 ta meliorativ tik quduq, 14 ta gidroteknika inshoot hamda 385,2 kilometr bosimli quvurlarni qurish va rekonstruksiya qilish ishlari bajarildi. Natijada 494,3 ming xonadonning 88 ming gektar tomorqasida suv ta‘minoti yaxshilandi.

2025-yil 30-iyulda Suv kodeksi qabul qilingani soha rivojida muhim voqea bo‘ldi. Unga muvofiq mamlakatimizda suv munosabatlari sohasidagi asosiy huquqiy hujjatlar tizimlashtirildi. Suv kodeksi kuchga kirishi munosabati bilan joriy yil 17-noyabrda Toshkent shahrida xalqaro suv hamkorligi va O‘zbekiston Respublikasining suv qonunchiligini takomillashtirishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

Konferensiya Suv kodeksi taqdimoti o‘tkazildi hamda suv ta‘minotini yaxshilash, suv tejash texnologiyalarini joriy etish va ayniqsa, Orolbo‘yi hududida aholi muhofazasiga qaratilgan dasturlarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma tashabbuslar muhokamasiga e‘tibor qaratildi.

Yaqinda Prezidentimiz Qishloq xo‘jaligi sohasi xodimlari kuni munosabati bilan soha vakillari ishtirokida muloqot o‘tkazdi. Muloqot chog‘ida dehqon, fermer, bog‘bon, chorvador, suvchi, agronom va mexanizatorlarning mehnati e‘tirof etildi.

Kelgusi yili mamlakatimizda paxtadan 4,5 million tonna, g‘alladan 10 million tonna hosil olish mo‘ljallanmoqda. Bunga, albatta, suvchilar ham munosib hissa qo‘shadi. 2026-yilda ham suvchilar bir yoqadan bosh chiqarib, suvni belgilangan limit asosida yetkazib berish, obiyotni imkon qadar tejash, dehqon va mirishkorlarga qanot bo‘lib, ulkan xirmonlar ko‘tarilishiga hissa qo‘shish uchun bor kuch-g‘ayratini safarbar etadi.

Suv resurslari har qanday davlatning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Cheklangan suv zaxiralarga ega O‘zbekiston uchun esa suv va energiyadan oqilona foydalanish nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda ham hal qiluvchi omildir.



“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi

OBIHAYOT KELAJAK AVLOD UCHUN HAM ZARUR

Eskirgan va energiya sarfi yuqori nasos agregatlari zamonaviylariga almashtiriladi



Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Suv xo‘jaligi sohasida samaradorlikni oshirish energiya va yoqilg‘i sarfini, tabiiy resurslar yuklamasini kamaytirish, sug‘orish tizimlari unumdorligini oshirish va qishloq xo‘jaligida uzluksiz mahsulot yetishtirishni ta‘minlash imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va oziq-ovqat xavfsizligiga bevosita ta‘sir qiladi. Ushbu sohada ilmiy salohiyatning rivojlanishi

Shuningdek, xalqaro imijni mustahkamlash, innovatsiyalarni jalb etgan holda infratuzilmani modernizatsiyalash, ilmiy loyihalarga investitsiya kiritishga ham asos yaratiladi.

Sir emas, 2017-yilgacha suv xo‘jaligi qator muammolar girdobida edi. Irrigatsiya tizimlarida suv va energiya yo‘qotishlar yuqori, nasos stansiyalari va kanallar eskirgan, zamonaviy texnologiyalar darajasi past va eng achinarlisi, tarmoqda ilmiy tadqiqotlar yetarlicha moliyalashtirilmagandi.

Davlatimiz rahbarining sohaga e‘tibori natijasi o‘laroq, keyingi yillarda vaziyat keskin o‘zgardi. Nasos stansiyalari va irrigatsiya tizimlari energiya tejovchi texnologiyalar bilan ta‘minlanib, soha tubdan modernizatsiya qilindi. Avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari joriy etildi va yo‘qotishlar sezilarli darajada kamaytirildi.

Shu bilan birga, ilmiy salohiyat rivojlantirildi, zamonaviy ilmiy markazlar ochildi. Malakali mutaxassislar tayyorlandi va tadqiqotlar amaliyotga tatbiq etila boshlandi.

Xalqaro hamkorlik ham faol rivojlanmoqda. Sohaga chet el investitsiyasi va texnologiyalari jalb qilinmoqda. Global ilmiy loyihalarda ishtirok etish va tajriba almashish imkoniyatlari kengaymoqda.

“

Mutaxassislar hisob-kitobiga ko‘ra, hozir yer yuzida qariyb 1,1 milliard kishi turli darajadagi suv tanqisligidan aziyat chekmoqda. 2030-yilga borib, suv tanqisligi kuzatilishi hamda buning oqibatida O‘zbekiston dunyodagi suv tanqis bo‘lgan 33 davlat qatoriga tushib qolish ehtimoli yo‘q emas.

”



Xalqaro tashkilotlar ma‘lumotlariga ko‘ra, har yili 7 million gektarga yaqin unumdor yer jahon qishloq xo‘jaligi aylanmasidan chiqib ketmoqda, 7 million kishi havo ifloslanishi ta‘siridan vafot etmoqda.

Mana shunday murakkab bir sharoitda keyingi yillarda mamlakatimizda qabul qilinayotgan, aniq maqsad va vazifalarni o‘zida jamlagan farmon va qarorlar, tasdiqlangan dasturlar ijrosi doirasida ko‘rilgan chora-tadbirlar ijobiy samara berayotganini alohida ta‘kidlash o‘rinli.

E‘tiborli jihati, bu borada puxta o‘ylangan reja asosida keyingi qadamlarni ham tashladik. Ana shunday muhim dasturlarimizdan biri “O‘zbekiston — 2030” strategiyasidir. Hujjatda yurtimizda suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish borasida qator ustuvor vazifalar belgilangan muammoning salbiy ta‘sirini kamaytirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Jumladan, unda suv ishlatish samaradorligini 25 foiz oshirish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 million gektargacha, jumladan, tomchilab sug‘orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish vazifasi qo‘yilgan.

zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, suv resurslarini boshqarishni avtomatlashtirish va malakali mutaxassislar tayyorlash uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar obiyotga ehtiyojni oldindan hisob-kitob qilish, suvdan foydalanishni optimallashtirish, iqlim o‘zgarishiga moslashish strategiyasini ishlab chiqish va ekologik xavflarning oldini olish imkonini beradi. Bu esa suv xo‘jaligida uzoq muddatli barqaror ta‘minot uchun zamin yaratadi. Mazkur yo‘nalishda xalqaro hamkorlik, investitsiya va innovatsion texnologiyalardan foydalanish, suv resurslarini boshqarish bo‘yicha global loyihalarda ishtirok etish va yetakchi davlatlar bilan tajriba almashish muhim ahamiyatga ega. Bu, o‘z o‘rnida, mamlakatimizning xalqaro obro‘sinı mustahkamlaydi va raqobatbardoshligini oshiradi.

Energiya samaradorligi, ilmiy salohiyat va xalqaro hamkorlikka har tomonlama e‘tibor mamlakat uchun qator ustunliklar beradi. Ya‘ni bu orqali raqobatbardoshlikni ta‘minlash, xususan, suv va energiyadan oqilona foydalanish hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, qishloq xo‘jaligining qurg‘oqchilik va iqlim o‘zgarishiga chidamligini oshirish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish, malakali mutaxassislar sonini ko‘paytirishga erishish mumkin.

Boshqaruv tizimi isloh qilinishi natijasida suv resurslarining shaffof va samarali boshqaruvda hududiy monitoring va mas‘uliyat kuchaytirildi.

Prezidentimizga shu yil 15-dekabr kuni suv xo‘jaligida energiya samaradorligini oshirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash ishlari yuzasidan berilgan axborotda eskirgan va energiya sarfi yuqori nasos agregatlarini zamonaviy, energiya tejamlilariga almashtirish bo‘yicha rejalari ko‘rib chiqildi.

Mutaxassislar aytishicha, so‘nggi yillarda suv xo‘jaligi nasos stansiyalari qariyb 20 foiz kam energiya iste‘mol qilmoqda. Shunga qaramay, anchagina agregatlar zamonaviylariga almashtirishga muhtoj. Masalan, o‘tgan yilda Kegeyli tumanidagi bitta nasos agregati zamonaviy energiya tejamlilariga almashtirilganda, energiya iste‘moli ikki barobar, fermerning ekspluatatsiya xarajatlari esa uch barobar kamaydi.

Bugun Qoraqalpog‘istonda mavjud 274 ta nasos stansiyasidagi agregatlarning yarmidan ko‘pi 1979-yildan buyon ishlab chiqarilgan uskunalaridan iborat, ularning energiya sarfi zamonaviy nasoslamkiga nisbatan 2-3 barobar yuqori.

Davlatimiz rahbari tomonidan Kegeyli tajribasini keng joriy etish va barcha eskirgan uskunalarni zamonaviylariga almashtirish bo‘yicha vazifalar qo‘yildi.

Eng muhimi, bu jarayonda moliyalashtirish manbalari hal qilib berildi. Shuningdek, bu borada mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash va olimlar bilan ilmiy ishlarni jadallashtirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar belgilandi.

Bir so‘z bilan aytganda, bugun atrofimizda ro‘y berayotgan suv bilan bog‘liq ekologik muammolar barchamiz uchun ogohlik qo‘ng‘irog‘i bo‘lishi kerak. Bundan har birimiz tegishli xulosa chiqarib, suvni tejash va isrof qilmaslik tamoyilini kundalik mezonimizga aylantirishimiz zarur. Bugun bizga hayot va zavq ulashayotgan toza ichimlik suvdan kelajak avlod ham bizdek bahra olishga haqli.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Nasos stansiyalari 2018-yilda 8,3 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi sarflagan bo‘lsa, 2025-yil yakuni bo‘yicha bu ko‘rsatkich 6,4 milliard kilovatt-soatni tashkil etishi kutilmoqda. Shu tariqa elektr energiyasi iste‘molini yetti yilda 1,9 milliard kilovatt-soat kamaytirishga erishildi.

Suv xo‘jaligi sohasida samaradorlikka erishishning birdan-bir yo‘li — raqamlashtirish. Bu orqali shaffoflik va aniqlik ta‘minlanadi, korrupsiyaning oldi olinadi.

Kanallar betonlashtirilishi tufayli suv yo‘qotilishining oldi olinayapti. Pirovardida ekin maydonlari va tomorqalarga kafolatli suv yetkazib berishga erishilmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, faqat kanal va arklar betonlashtirilishi evaziga yiliga o‘rtacha 1 milliard kub metrdan ko‘proq suv yo‘qotilishining oldi olinmoqda.


Umuman olganda, 2025-yilda 10 milliard kub metrga yaqin suv resurslari iqtisod qilindi. Suv obyektlarida suvni

Raqamli muhit kengayishi bilan jamiyatda g'oya va bilimning qiymati tobora oshib borayotgan bir pallada intellektual mehnat mahsulining iqtisodiy jarayonlardagi hal qiluvchi ahamiyati kuchaydi. Xususan, keyingi yillarda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot tamoyillarini mustahkamlash, kreativ industriya salohiyatini oshirish, ilm-fan va texnologiyani qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarida izchil o'zgarishlar ro'y berdi. Bu jarayonning davomi sifatida intellektual mulk muhofazasini mustahkamlash masalasi yuzaga chiqdi. Ayniqsa, axborot oqimi nihoyatda tezlashgan, kontent yaratilishi va tarqalishi soniyalar ichida sodir bo'layotgan hozirgi sharoitda huquqiy mexanizmlarni yangilash ehtiyoji tug'ildi.

Ayni ehtiyojdan kelib chiqqan holda Prezidentimizning 2025-yil 27-noyabrdagi "Intellektual faoliyat natijalarini rag'batlantirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida intellektual mulk sohasini tubdan yangilash, jarayonlarni raqamlashtirish, ekspertiza muddatlarini qisqartirish va barcha foydalanuvchilar uchun qulay, shaffof muhit yaratish maqsadi ko'zda tutilgan. Qarorga muvofiq, ishga tushirilishi belgilangan "Intellektual mulk muhofazasi" portali aynan shu jarayonning tamol toshi bo'lib xizmat qilishi kutilmoqda. Portalning ishga tushirilishi bilan muallif o'z asariga doir murojaatni tezkor shaklda yusborish, shartnomalarni masofadan turib rasmiylashtirish, huquqbuzarlik to'g'risidagi ma'lumotlarga oson kirish imkoniga ega bo'ladi. Shubhasiz, masalaning mohiyati faqat shu bilan cheklanmaydi. O'quvchida aksar chetlab o'tiladigan yoxud ko'pchilik tomonidan ba'zan shunchaki e'tiborsiz qoldiriladigan, aslida esa davlat va jamiyat hayotida o'ta dolzarb ushbu mavzuning mazmuni va ahamiyati, uning tarixiy ildizlari, tamoyillari hamda yangi qaror orqali O'zbekistonda shakllanayotgan tizim, uning zarurati borasida savollar tug'ilishi tabiiy.

Jahon tajribasi: tushuncha va tarixiy ildizlar

Tarix sahifalarida aql mevasi — intellektual mulkni himoya qilishga ehtiyoj o'ziga xos shakllarda ifodalanib kelingan. Yevropa mamlakatlarida bosmaxonalar faoliyati kengaygan davrda asar uchun ruxsatnoma berish amaliyoti paydo bo'ldi. Ushbu jarayon keyinchalik muallifning o'z asari ustidan nazorat huquqini tan oladigan qonuniy tizim yaratilishiga zamin hozirladi. XIX asrning ikkinchi yarmidan



Bolajon xalqmiz. Farzandimizga har narsaning sarasini ilinamiz. Afsuski, keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda bolalarga qarshi zo'ravonlik holatlari aks etayotgan lavhalar uchrab turibdi. Ayrim ota-onalar yoki kattalar o'zlarining nazdida bolalar tarbiyalash usuli deb bilgan harakatlar zo'ravonlik turiga kiradi. Bolaga nisbatan jismoniy zo'ravonlik uydagina emas, maktabda, ko'chada va boshqa joylarda sodir bo'lishi mumkin. Qayerda bo'lishidan qat'i nazar, bu bolaning o'z qadriini bilmasligi, ta'lim olishdagi muammolar, agressiya, depressiya va befarqlikka olib keladi. Shuning uchun bugun mamlakatimizda bolalarga nisbatan jismoniy zo'ravonlikni to'xtatishga, ular uchun xavfsiz va baxtli muhit yaratishga qaratilgan zarur choralar ko'riylapti. Ularning ijrosini ta'minlash yuzasidan tizimli ishlar olib borilyapti.



e'tiboran xalqaro maydonda mualliflik huquqini bir xil tartibda qo'llash zarurati kuchaydi. Natijada davlatlar o'rtasida o'zaro tan olish mexanizmlarini belgilagan asosiy bitimlar yuzaga keldi. Bu konvensiyalar adabiy, badiiy va ilmiy asarlarning muhofazasini yirik miqyosga olib chiqqan, zamonaviy intellektual mulk tizimi shakllanishiga yo'l ochgan huquqiy poydevor edi.

Hozir mualliflik huquqi keng qamrovli tuzilma bo'lib, ijodkorning shaxsiy manfaatlarini himoya qilish bilan birga iqtisodiy faollik uchun mustahkam asos yaratadi. Bu orqali ijodkor o'zi yaratgan asarni tarqatish, ko'paytirish, qayta ishlash yoki foydalanishga ruxsat berish kabi huquqlarga ega bo'ldi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotiga nazar tashlansa, mualliflik huquqi borasida texnologik yondashuvlar ustunlik qilayotgani yaqqol seziladi. Masalan, internetda tarqalayotgan kontentni nazorat qilish, noqonuniy ko'chirish holatlarini aniqlash, ruxsatsiz yuklangan materiallarni o'chirib tashlash kabi jarayonlar maxsus elektron tizimlar orqali boshqariladi. Murakkab platformalarning bunday mexanizmlarga ega bo'lishi ijodkor manfaatlarini himoya qilish bilan birga foydalanuvchilar uchun ham tartibli axborot muhitini yaratadi. Xususan, Yevropa davlatlarida raqamli bozor siyosatini yuritishda mualliflik huquqi iqtisodiy faoliyatning ajralmas bo'lagi sifatida ko'riladi. Ular o'z platformalarida asar egasini aniqlash, kompensatsiya mexanizmlarini rivojlantirish, shaffof foydalanish tizimlari yaratishga alohida e'tibor beradi.

Jahon amaliyoti mualliflik huquqini qat'iy jazolar hisobiga emas, aksincha, tizimli profilaktika, ochiq reyestlar, tekzor raqamli xizmatlar, foydalanuvchi uchun qulay mexanizmlar orqali mustahkamlash samaraliroq natija berishini isbotlagan. Demak, ijodkor huquqlarini hurmat qiladigan jamiyat yaratishda faqat nazorat emas, balki tushuntirish ishlari, raqamli savodxonlikni oshirish, qonunchilikni yengil idrok etiladigan shaklda yetkazish muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda-chi? Xo'sh, biz qaysi yo'lni tanladik? Buni tushunib olish uchun mazkur tushunchaning yurtimiz sharoitida qanday rivojlangani, evolyutsiyasi va nihoyat

“Huquqiy himoya faqat sud zalida emas, uning oldingi bosqichlarida ham shakllanadi. Portal ana shu bosqichning markazida turib, ijodiy natijani rasmiy e'tirofga yo'naltiradi, nizolarni erta bosqichda aniqlashga yordam beradi. Eng muhimi, muallif uchun aniq “yo'l xaritasi” yaratadi.



bugungi holat, shuningdek, istiqboldagi rejalarga nazar tashlashimizga to'g'ri keladi.

O'zbekistonda intellektual mulk siyosatining evolyutsiyasi

Yurtimizda intellektual mehnat natijalarini tartibga solish jarayoni so'nggi o'n yilliklarda bosqichma-bosqich shakllangan huquqiy poydevorga tayanadi. Avvalgi davrlarda ijod mahsulini rasmiylashtirish imkoniyatlari ancha cheklangan, jarayonning o'zi murakkab va ko'p bosqichli bo'lgani sabab ko'plab asarlar rasmiy huquqiy maqomga ega bo'lmay qolardi. Iqtisodiy jarayonlarda innovatsiya, ilmiy izlanish va kreativ faoliyatning o'rni kuchayib borgan sari intellektual mulkni muhofaza qilish ehtiyoji oshdi.

Shu bilan birga, amaliyotda bir qator to'siqlar ham mavjud edi. Xususan, plagiat, ruxsatsiz ko'paytirish, internetda tarqatish kabi holatlarga ko'z yumish mumkin emas. Sud jarayonlaridagi cho'zilis, ekspertiza muddatlarining uzoqligi, huquqni qo'llash organlarida tajriba yetishmasligi ijod mahsulining real himoyasini sustlashtirib qo'ygandi. Bunday sharoitda muallif o'z asari himoyasini talab qilishga jur'at topolmasligi, oqibatda yangi g'oya va tashabbuslar boy berilishi ehtimoli kuchayardi.

Zamonaviy siyosat mana shu zaif bo'g'inlarni aniqlab, bartaraf etishga qaratilgan mexanizmlarni shakllantirdi. Ilm-fan, madaniyat, AT, startup ekotizimi, ijodiy sohalar vakillarining ehtiyoji tahlil qilinib, muammolar manbalari aniq belgilandi. Ro'yxatdan o'tkazish bosqichlari yengillashtirilish, xizmatlarning elektron shaklga o'tkazilishi, murakkab amaliyotlarni qisqartirishga qaratilgan

tashabbuslar aynan shu jarayonning mahsulidir.

Ijodkorlar nigohida esa asosiy masala huquqiy tartiblarning mavjudligidan ko'ra ularning hayotiy samaradorligidadir. Matn muallifi o'z asari qayta chop etilsa, dizayn nusxalari tarqalsa yoki tadqiqot natijalaridan ruxsatsiz foydalanilsa, bunga munosabat bildirish imkonli aniq bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda ushbu jarayonning izchil takomillashuvi, davlat xizmatlarining ochiqligi, murojaatlarni ko'rib chiqishning tezlashuvi intellektual mehnat bilan shug'ullanuvchi qatlamda ishonch uyg'ota boshladi. Jumladan, mazkur qarorni intellektual mulk sohasini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan konseptual hujjat sifatida baholash mumkin. Qaror mazmunida ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirish va texnologik imkoniyatlar orqali huquqiy jarayonlarni yengillashtirish g'oyasi ustuvor o'rinni egallagan. Bu hujjat turli xizmatlar o'rtasida tarqoqlikni bartaraf etib, tartiblarni yaxlit tizimga yo'naltirgan davlat siyosatining mantiqiy davomi sifatida yuzaga keldi.

Qarorda 2026-2027-yillar uchun belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar alohida ahamiyatga ega. Intellektual mulk obyektlarini rasmiy ro'yxatga olish sonini 100 mingga yetkazish vazifasi ijodiy va ilmiy faoliyatni keng miqyosda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yirik tashabbuslardan biridir. Shuningdek, ekspertiza jarayoni muddatini ikki baravar qisqartirish rejasi huquqiy xizmatlarning tezkorligini oshirish, foydalanuvchilar uchun kutish bosqichlarini ixchamlashtirishga yo'naltirilgan. Bunday maqsadlar, o'z navbatida, zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, sun'iy intellektga asoslangan tahlil vositalaridan foydalanish imkonini kengaytiradi.

“Intellektual mulk muhofazasi” portali

Intellektual mehnat natijalarini tartibga solish bo'yicha turli platformalar faoliyat yuritib kelgan bo'lsa-da, ularning bir yo'nalishga jamlanmagani amaliyotni murakkablashtirib qo'yar edi. Yangi portal aynan mana shu muammoni hal qilishga qaratilgan bo'lib, axborot resurslarini yagona markazga birlashtiradigan va barcha asosiy xizmatlarni bir joyda taqdim etadigan tizim sifatida shakllantirilmoqda. Bu yondashuv foydalanuvchi uchun ortiqcha shaxsiy kabinet kamaytiradi, davlat organlari o'rtasida axborot almashinuvi samaradorligini oshiradi.

Portalning texnik tuzilishida bir nechta ustuvor tamoyil asos qilib olingan. Avvalo, identifikatsiya jarayoni aniq bo'lishi muhim: foydalanuvchi o'z ma'lumotlarini bir martalik ro'yxatga olish tizimi orqali tasdiqlaydi va keyingi barcha amalni shaxsiy kabinet orqali amalga oshiradi. Bu model xizmatdan foydalanishni qulaylashtiradi va huquqiy jarayonlar to'g'ri yuritilishini ta'minlaydi. Shuningdek, portal hujjatlarni elektron shaklda qabul qilish, ularga zarur ilovalarni birlashtirish, jarayonning har bir bosqichini kuzatish imkonini beradi.

Shu bilan birga, murojaatlarni tezkor qayd etish va bir xil tartibda ko'rib chiqish imkoniyati yaratiladi. Ijod mahsuli bo'yicha savol, shikoyat, taklif yoki hujjat topshirilganda, foydalanuvchi bunga doir barcha ma'lumotni o'zi kuzatib borishi mumkin. Portalda ko'zda tutilgan elektron shartnoma tuzish imkoniyati esa muallifning hamkorlik aloqalarini masofadan turib rasmiylashtirishiga yordam beradi.

Himoya jarayonida muhim o'rinni tutadigan yana bir jihat kontrafakt tovarlar va huquqni buzgan veb-saytlar bo'yicha ma'lumotlar bazasidir. Bu bo'lim foydalanuvchi uchun nafaqat axborot manbai, balki profilaktika vositasi sifatida ham ahamiyatga ega. Tadbirdor o'z mahsulotini yangi hududga chiqarayotganda, jumalist yoki tadqiqotchi material tayyorlayotganda, dizayner portfelini himoya qilishda aynan shu ma'lumotlar unga qulay yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

Intellektual mulk sohasida yuzaga chiqadigan nizolar ko'pincha murakkab tahlil va aniq dalillarni talab qiladi. Asarning qaysi qismini kim yaratgani, qay tartibda foydalanilganini aniqlash oddiy ko'z bilan ilg'ash mushkul. U chuqur huquqiy izlanish, puxta hujjatlashtirish, soddalikdan yiroq jarayonlardan tarkib topadi. Shu sabab sud tizimida intellektual mulk bilan bog'liq ishlar alohida mas'uliyat bilan ko'rib chiqiladi.

Sud amaliyotida uchraydigan eng katta muammolardan biri — dalilning ishonchligi. Ruxsatsiz ko'chirib tarqatilgan materialni aniqlash, mualliflik mezonini belgilash, texnik tahlilni to'g'ri qurish ko'p vaqt talab qiladi. Portal bu yo'nalishda muayyan tartib yaratadi. Jumladan, kontrafakt mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar, faoliyati cheklangan saytlar ro'yxati, murojaatlar tarixi va ularga berilgan javoblar o'zaro bog'langan tizim sifatida shakllantiriladi. Sudya, advokat yoki

ekspert ushbu ma'lumotlarga tayanib, nizoning mohiyatini aniqroq tushunishi mumkin.

Huquqiy himoya faqat sud zalida emas, uning oldingi bosqichlarida ham shakllanadi. Portal ana shu bosqichning markazida turib, ijodiy natijani rasmiy e'tirofga yo'naltiradi, nizolarni erta bosqichda aniqlashga yordam beradi. Eng muhimi, muallif uchun aniq “yo'l xaritasi” yaratadi.

Huquqiy madaniyat va ijtimoiy ong

Intellektual mehnatning qadri nafaqat qonunlarda, balki jamiyatning kundalik hayotida o'z ifodasini topadi. Ijod va mehnat mahsuli hurmat qilinadigan muhitda g'oya bemalol o'sadi, fikr yo'li kengayadi, ilmiy izlanishlar samara beradi. Shuning uchun mualliflik huquqi to'g'risidagi bilimlar aholining umumiy madaniyat darajasi bilan chambarchas bog'liq.

Bugun raqamli hayot tezlashuvi natijasida ko'plab odamlar har kuni matn, rasm, video, musiqa yoki ilmiy ma'lumotga duch keladi. Bu oqimda muallif kimgilini farqlash, asarning manbasini ko'rish, uning ortidagi mehnatni sezish bir qarashda ahamiyatsizdek tuyulishi mumkin. Biroq bu, avvalo, aholining madaniy tushunchalari bilan aloqador holat ekanini unutmashlik lozim. Shu sabab intellektual mulk bo'yicha tushuntirish ishlari, ommaviy savodxonlik dasturlari, maktab va oliy ta'lim tizimida mazkur mavzuning muntazam yoritilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yosh avlod o'quv jarayonidayoq ijodiy mehnatning qadriga yetishni o'rganar ekan, jamiyatning umumiy madaniy manzarasi ham shunga monand o'zgarib boradi.

Universitetlar bu borada alohida mas'uliyatga ega. Xususan, qarorga muvofiq, oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy tashkilotlarda texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari tashkil etiladi. Bu markazlar patentlash, tijoriylashtirish va ishlash chiqarishga joriy etish jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydi, Adliya vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ushbu markazlarga uslubiy yordam ko'rsatadi. 2026/2027-o'quv yilidan O'zbekiston Milliy universitetida intellektual mulkni boshqarish yo'nalishi ochiladi. 2029-2030-yilga qadar kamida to'rtta oliygohda mazkur yo'nalish yo'lga qo'yiladi. Toshkent davlat yuridik universitetida zamonaviy intellektual mulk huquqi ta'lim dasturlari joriy etiladi. O'quv jarayoniga Buyuk Britaniya, Singapur, Janubiy Koreya va Xitoy ekspertlari jalb etiladi.

Biznes sektori ham bu jarayonning muhim ishtirokchisi. Yirik korxonalaridan tortib kichik studiyalargacha yangilik yaratish, dizayn ishlash chiqish, dastur tayyorlash, brend konsepsiyasi yaratish kabi jarayonlarda ishtirok etadi. Har bir loyiha, o'z navbatida, intellektual mehnatga suyanadi. Korxonalar o'z mahsuloti, reklama materiali uchun mas'uliyat hissi bilan yondashishga halol raqobat muhiti shakllanadi.

— Albatta, bu borada rag'bat mexanizmi ham muhim omil, — deydi Adliya vazirligining intellektual mulk sohasini tahlil qilish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i Boburxon Abbasov. — Qaror bilan ixtirochi va novatorlarni rag'batlantirish bo'yicha katta imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, intellektual mulk obyektlari kredit olish uchun garov sifatida qabul qilinadi. Har yili “Eng yaxshi ixtiro”, “Eng yaxshi foydali model”, “Eng yaxshi sanoat namunasi” kabi nominatsiyalar bo'yicha respublika tanlovi o'tkaziladi, g'oliblar mukofotlanadi.

Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarining jamiyat tafakkurini o'zgartirishda kuchli vosita sifatidagi o'rinni nazardan qochirmaslik lozim. Gazeta va telekanallarda intellektual mulk mavzusi, ijodkorlar tajribasi muntazam yoritilsa, huquqiy jarayonlar xalqchil tilda tushuntirilsa, aholining ayni yo'nalish bo'yicha bilimi oshadi, tasavvuri kengayadi. Shuningdek, internet nashrlarida bu mavzuga bag'ishlangan doimiy ruknlar ochilsa, o'quvchi hayotda duch keladigan ko'plab holatlar bo'yicha aniq yo'l-yo'riq oladi. Umuman olganda, bunday muhitda ijodkor o'zini erkin his qiladi, jamiyat esa fikr egalarga egashadi, rivojlanish dadil davom etadi.

Asliddin ABDURAZZOQOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

XAVFSIZ HAYOT BAXSH ETISH — INSONIY VAZIFA

huquqiy hujjat bazasi takomillashtiriladi. Jumladan, zo'ravonlik masalasi qayta ko'rib chiqilib, hujjatlarga o'zgartirishlar, takliflar kiritiladi. Bolaning shakllanishi, jamiyatga qo'shilib ketishida oiladagi muhit birlamchi o'rin tutadi. Ya'ni strategiyada oiladagi muhiti yaxshilashga, zo'ravonlikning oldini olish, choralarini ko'rish, xavfsiz ta'lim muhitini yaratishga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, aholi o'rtasida bolalarga nisbatan zo'ravonlik haqidagi fikrlarni o'zgartirish bo'yicha targ'ibot olib borish, bu boradagi tadqiqotlarni kuchaytirish maqsadi qo'yilgan.

Endilikda zo'ravonlik guvohi bo'lgan bolalarga ko'proq ijtimoiy yondashuv asosida, oilaga yaqin muhitda xizmat ko'rsatishga urinishga qaratilgan. Chunki bolaga xavf yuqori darajada baholaganda va oilasidan ajratib olinganida, unga o'z oilasidagi muho muhiti yaratib berish kerak bo'ladi. Buning uchun mutasaddilar tomonidan bir qancha takliflar kiritilyapti. Jumladan, o'zining oilasidan olingan bolalar “ixtisoslashgan tutingan oila”ga beriladi. Bu oila boladagi zo'ravonlikdan keyingi ruhiy holatni yaxshilashga qaratilgan xizmatlar ko'rsata olishi uchun maxsus dasturlar asosida o'qitiladi.

Kichik ijtimoiy ko'mak markazlari faoliyati yo'lga qo'yilishi esa zo'ravonlikka guvoh bo'lgan bolalarning hissiyotini boshqarish, ruhiyatidagi buzilishlarni tuzatishga xizmat qiladi. Dastlabki bosqichda mazkur markazlar Qashqadaryo, Xorazm va Navoiy viloyatlarida, 2026-yil so'ngigacha qadar boshqa hududlarda ham bosqichma-bosqich ishga tushiriladi. Bu shunchaki tatbiq etilmayapti, mas'ullar bir nechta xorijiy mamlakatning ijobiy tajribasini o'rgandi. O'rganishlar bu turdagi ijtimoiy xizmat ko'rsatish asosan Buyuk Britaniya, Fransiya yoki Norvegiyada ancha rivojlanganini ko'rsatdi. Shuningdek, Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Gruziyada shunday tizim yo'lga qo'yilgan.

Mutasaddilarga ko'ra, aslida bu tajriba bizga begona emas, ayni turdagi xizmatlar o'zimizda ham sinov tariqasida bo'lgan. Shundan kelib chiqib, o'ziga nisbatan zo'ravonlik sodir etilishi havi ostida bo'lgan 11 toifadagi bolalar uchun ham oilaga yaqin muhitda, mahalla darajasida kichik markazlar tashkil etish belgilandi.

Idoralararo integratsiya bolalarga nisbatan zo'ravonlik masalasida ham ayni muddao bo'ladi. Chunki shu paytgacha respublikamizda zo'ravonlikdan jabrlangan va uning guvohi

Dolzarb mavzu



bo'lgan bolalar haqidagi statistik ma'lumotlar mavjud bo'lmagan. Ularni yig'ish juda qiyin masala edi. Endi Ichki ishlar vazirligining maxsus platformasiga yo'llangan zo'ravonlik haqidagi xabar to'g'ridan to'g'ri Ijtimoiy himoya milliy agentligiga ham kelib tushadi. Bu juda muhim ahamiyatga ega. Chunki shu xabar asosida ijtimoiy xodim voqeani joyiga chiqib o'rganadi. Agentlik Ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda zo'ravonlikdan jabrlangan bolalar bilan ishlasa, ichki ishlar organlari zo'ravonlik sodir etgan shaxslar bilan shug'ullanadi. Platforma Oliy sud platformasiga ham integratsiya qilinadi. Integratsiyalash natijasida internet tarmoqlari orqali bo'layotgan

onlayn zo'ravonlikka ham alohida e'tibor beriladi, bolaga nisbatan kiberjinoiyatchilikning oldi olinadi. Zero, zo'ravonlikning bu turi ham bugun aynanchi yakunlarga sabab bo'layotgani bilan xavotirli.

Aslida, zo'ravonlikning eng yengil turi ham shaxsga zarar yetkazishi, uning ruhiyatiga salbiy ta'sir etishi bilan qattiq qoralanadi. Shunday ekan, bolalarimizni bu yomon illatdan himoyalash, ertamiz egalariga xavfsiz hayot baxsh etish — hammamizning insoniy vazifamiz.

Munojat MO'MINOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

TARIXNI TOSHGA O'YGAN

ijodkor

Haykaltaroshlik asrlar osha xalqning dardiyu quvonchini, orzu-armonini o'z bag'rida saqlab qoladigan bebaho bunyodkorlik san'atidir. Har bir haykal — sukutdagi ovoz, toshga o'yilgan tarix hamda haykaltaroshning e'tiqodi va qalbidagi haqiqat ifodasi. Yurtimizda ushbu haqiqatni chuqur his etgan, tosh va bronzadan inson qiyofasini jonlantira olgan san'at ustalaridan biri — O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, san'at arbobi, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi Ilhom Jabborovdir.

Ilhom Jabborov besh yil davomida taniqli haykaltarosh Anvar Ahmedov kabi ustozlardan saboq olib, bilimini mustahkamlaydi. Institutdagi ta'lim uning ijod yo'lida san'atning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda mustahkam poydevor vazifasini o'tadi. U 1995-yilda o'zi ta'lim olgan Respublika rassomlik bilim yurtida ish boshlaydi. 1997-yildan esa Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida haykaltaroshlik ustaxonasi rahbari hamda olim sifatida faoliyatini davom ettiradi.

Ilhom Jabborov besh yil davomida taniqli haykaltarosh Anvar Ahmedov kabi ustozlardan saboq olib, bilimini mustahkamlaydi. Institutdagi ta'lim uning ijod yo'lida san'atning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda mustahkam poydevor vazifasini o'tadi. U 1995-yilda o'zi ta'lim olgan Respublika rassomlik bilim yurtida ish boshlaydi. 1997-yildan esa Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida haykaltaroshlik ustaxonasi rahbari hamda olim sifatida faoliyatini davom ettiradi.

1997-yilda O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi etib saylanishi Ilhom Jabborov shaxsining e'tirofi bo'ldi. U faoliyatini nafaqat shaxsiy ijodiy yo'l, balki yurtimizning madaniy merosini avloddan avlodga yetkazuvchi vazifa sifatida ko'ra bildi va yillar davomida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida yoshlarga ustozlik qilib keldi.

Ilhom Jabborov besh yil davomida taniqli haykaltarosh Anvar Ahmedov kabi ustozlardan saboq olib, bilimini mustahkamlaydi. Institutdagi ta'lim uning ijod yo'lida san'atning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda mustahkam poydevor vazifasini o'tadi. U 1995-yilda o'zi ta'lim olgan Respublika rassomlik bilim yurtida ish boshlaydi. 1997-yildan esa Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida haykaltaroshlik ustaxonasi rahbari hamda olim sifatida faoliyatini davom ettiradi.

1997-yilda O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi etib saylanishi Ilhom Jabborov shaxsining e'tirofi bo'ldi. U faoliyatini nafaqat shaxsiy ijodiy yo'l, balki yurtimizning madaniy merosini avloddan avlodga yetkazuvchi vazifa sifatida ko'ra bildi va yillar davomida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida yoshlarga ustozlik qilib keldi.

Ilhom Jabborov besh yil davomida taniqli haykaltarosh Anvar Ahmedov kabi ustozlardan saboq olib, bilimini mustahkamlaydi. Institutdagi ta'lim uning ijod yo'lida san'atning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda mustahkam poydevor vazifasini o'tadi. U 1995-yilda o'zi ta'lim olgan Respublika rassomlik bilim yurtida ish boshlaydi. 1997-yildan esa Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida haykaltaroshlik ustaxonasi rahbari hamda olim sifatida faoliyatini davom ettiradi.

1997-yilda O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi etib saylanishi Ilhom Jabborov shaxsining e'tirofi bo'ldi. U faoliyatini nafaqat shaxsiy ijodiy yo'l, balki yurtimizning madaniy merosini avloddan avlodga yetkazuvchi vazifa sifatida ko'ra bildi va yillar davomida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida yoshlarga ustozlik qilib keldi.

Ilhom Jabborov besh yil davomida taniqli haykaltarosh Anvar Ahmedov kabi ustozlardan saboq olib, bilimini mustahkamlaydi. Institutdagi ta'lim uning ijod yo'lida san'atning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda mustahkam poydevor vazifasini o'tadi. U 1995-yilda o'zi ta'lim olgan Respublika rassomlik bilim yurtida ish boshlaydi. 1997-yildan esa Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida haykaltaroshlik ustaxonasi rahbari hamda olim sifatida faoliyatini davom ettiradi.

Bioxilma-xillik

KO'HITANG BAG'RIDAGI NOYOB TABIAT

2025-yil yurtimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deya e'lon qilingani bejiz emas. Tabiatni asrash global masala ekanini davrning o'zi ko'rsatayпти. Ayniqsa, hayvonot va nabotot olamini asrash, yo'qolib borayotgan turlarni saqlab qolish kechiktirib bo'lmas ustuvor vazifadir.

O'zbekistonning janubiy hududidagi noyob ekotizim joylashgan "Surxon" davlat qo'riqxonasi bu borada muhim ilmiy va amaliy markazlardan. Vohani qoq ikkiga bo'lib oquvchi Surxondaryo sohilidan qarasangiz, kumbotarda ko'kimitir Ko'hitang tog'larini ko'rasiz. Uning avvali Boysun tog'lariga olansa, adog'i Amudaryo to'liqidan suv ichayotgan tulporni eslatadi.

Ko'hitangning sharqiy yonbag'rida "Surxon" davlat qo'riqxonasi joylashgan. Bu qo'riqxonada muntazam monitoring o'tkaziladi. Maqsad — undagi noyob va endemik hayvonot turlarini saqlab qolish, yashash sharoitini yaxshilash orqali ko'paytirish. O'rganish jarayonining muhim qismi yiliga ikki marta o'tkaziladigan noyob hayvonlar turlari sanog'idir.

— Yaqinda "Surxon" davlat qo'riqxonasi hududida uchraydigan asosiy va noyob

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetolari tahririyati" DM

BUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-1246. 34211 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Xurshid Abdullayev Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.